Bundashoir “besh” so‘zningturkiyvaforsiyma’nosi (beshso‘ziturkiydasanoqson, forsiydako‘p, ortiq, ziyodma’nolarinianglatadi)niqo‘llab, tasavvurnima’no-mohiyatsariharakatlantiradivaqalbdakechinmalarto‘lqininijunbushgakeltiradi. Buningnatijasio‘laroq, “beshkun” iborasio‘quvchiniteranroqmulohazayuritishga, tafakkurqilishgachorlaydi. Chunki, xalqorasida**beshkun**iborasiqatori**to‘rtkun**ta’birihamqisqadavr, bebaqodunyoma’nosidatengishlatilishi, lekinNavoiyshe’riyatidato‘rtkundunyoningbebaqoliginianglatuvchitavsifsifatidabirormartaqo‘llanilmaganligihamso‘zamollikhalishoirlikbelgisiemasliginiko‘rsatadi. Tasvirvabayonningzohiriygo‘zalliginiko‘zlab, ma’noyukidanozodso‘zlarningohangdorligigaqarabshe’rdajoylashtirishNavoiydektasavvuridaqiqshoiruchunmutlaqoyothodisa. Shuninguchun, mumtozshe’riyatimizdaqo‘llanilganharbirtimsol, harbirso‘zningtarixiytadrijihaqidama’lumotto‘plash, tahlilqilishvamuayyanshe’rgatatbiqetabilish – tadqiqotchiningbirlamchivazifalaridandir. AllomaijodigamurojaatetganaksariyatNavoiyshunoslar “AlisherNavoiynianglashuchun, engavvalo, uo‘qib-

istifodaqilgankitoblarnio‘rganishkerak”, deganfikrnitasdiqlaydilar, ammo, afsuski, buhaqiqatgahammavaqtham rioya qilinmaydi.

**“Beshkun”**iborasiNavoiydanoldinham, NavoiydankeyinhamSharqshe’riyatidakengqo‘llanilgan. Fors-tojikshe’riyatiningyirikvakili, NavoiyningustoziHofizSheroziy:

Suxandarpardamego‘yam, chugulazg‘unchaberunoy,

Kibeshazpanjro‘zenesthukmiamiriNavro‘ziy,

(Tarjimasi: Ramztilidaso‘zlayman, guldekg‘unchapardasinioch, chunkiNavro‘zamirininghukmibeshkundanortiqemas)
desa, Navoiynio‘zigaustozdebbilganturkmanshoiriMaxtumqulining: Uzangingtortarlar, to‘rtkunkechganso‘ng,

Besh kundan ortiqcha mehmon to‘xtamas.

Alisher Navoiy g‘azaliyotida “**beshkun”** iborasi bilan bog‘liq qator baytlar boki, ularda inson umrining o‘tkinchiligiga urg‘u berilar ekan, uni g‘animat bilishga chaqiriladi.

Bahorayyomini**beshkun**g‘animatangla, eybulbul

Kim, munchaso‘zutobingotashingulmijmarindindur[45.138]

Yoki

Kecha-kunduzqilmagulbongingnibas, eyandalib

Kim, sanga**beshkun**bugulshanichramehmonbo‘ldigul[46.288]

Shoirlaro‘zasarlaridaxalqmaqol-matallari, hikmatliso‘zlardanfoydalanishbilankifoyalanibqolmay, elichidamashhurtashbehlar, obrazliifodalardanhamkengistifodaetadilar. Chunonchi, manabubaytidaNavoiyma’shuqaningoshiqlarinio‘zko‘yidasargardonetsa-da, ularningbirortasigavisolmayidanichirmasligini**“suvgaeltib, sug‘ormaykeltirmoq”**obrazliifodasiorqaligo‘zalbirtarzdatasvirlaydi:

Xizrvash xat birla chun husnung samandin surgasen,

Yuk Skandarni **sug'a eltib, susiz kelturgasen [42.486]**.

Ko'pincha biror yaqin, yoshi ulug' yoki rahbar kishi bilan safarga jo'natar ekan, odamlar: "Uni senga, seni Xudoga topshirdim", – deydilar. Xulq ichida mashhur ana shu iboradan Navoiy muhabbat domiga giriftor bo'lgani – ko'nglini ma'shuqasiga boy berganini ifodalash uchun foydalanadi. Men bu yerda qayg'u-g'amda qoldim, jon-u ko'nglim sen bilan ketdi. Shunday ekan, jon-u ko'nglimni senga, seni esa Xudoga topshirdim:

Ko'ngul jon birla bordi hamrohing, men dard ila turdum:

**Sanga jon birla ko'nglumni, seni Tangriga topshurdum [42.369].**

Shoir she'riyati ko'p qo'llangan iboralar biri **"ko'ztikmoq"** iborasidir. Bu iboraning bir ma'nosi **"umidvorbo'lmoq"** bo'lib, Alisher Navoiy g'azaliyotida lirik qahramonning umidlari, orzu-istaklarining jamiyatda amalga oshishidan umidsizlik holatini tasvirlashda mahorat bilan qo'llagani quyidagi baytda ko'rishimiz mumkin:

Vafoaylab, vafo**ko'ztutma**olamdunlaridinkim,

Vafosizkeldiolamdunlarihamolamidundek [44.271].

Lirik qahramon barchaga vafo ko'rgazadi. Biroq uning evaziga vafosizlik ko'radi. Shoir mana shu vafosizlikni ko'rsatish, vafoga vafo, yaxshilikka yaxshilik qaytmasligini "**ko'ztutma**" iborasi orqali beradi. Baytdagi **dun** so'zi pastkash razil, nokas ma'nolaridagi so'z.

Hajrshomidinosibgardunqarokizbo'ynug'a,

Subhchokaylab**yaqo**xolimg'ashevanqildilar [43.120].

Ya'ni: samobo'ynigahajrshomidanqorakigizosib, tongyoqasinichokaylab, meningholimdanafg'onchekdilar, nolaqildilar. "Qorakigiz" tashbehidanmurod – zimistonosmon; "**yoqasinichokaylamoq"**istiorasidanmurod – er-uosmonningtutashzulmatiniyirtib, bir-biridanayiribufqdapaydobo'ladigantongyorug'ligi, oftobningilkshu'lalaridir.

O'chmisherdiishqo'ti, xasdektanimnidard-ushavq

**Kuydurub, go'yobututruqbirlaravshanqildilar [43.120]**.

Baytningmazmuniquyidagicha: ishqo‘ti-kuo‘chganedi, tanimxasdek (yengil, quruq, ya’niishqsiztan – mohiyatizdir) bo‘lib qolgan edi, ammodardvashavq (o‘rtanish, o‘tkirorzu, zo‘rhavas, qattiqintilish, kayf, istak) tutruq(tutantiriq)qaaylandi-yu, xas – tanqaytayonibketdi, ravshanlikpaydobo‘ldi. Navoiyasarlaridanamoyonbo‘ladiganmukammalbadiiyobrazning, detalning, tafsilotningmunosabatdorligi, taqozodorligiqonunibaytdagio‘t, xas, o‘chmoq, kuydurmoq, ravshankabiunsurlarorasida “tutruq”(tutantiriq)ningbo‘lishinitalabetadi.

To ko‘nguldin **boshchiqarmish** har taraf paykonlaring,

Qush bolasidek bo‘lubturkim, bo‘lur temur qanot [42.92].

Navoiy hamisha hayotiy hodisalar, narsalardan o‘z fikrini ifodalash, uni kuchaytirish uchun go‘zal va betakror tashbehlar hosil qiladi. Chunonchi, keltirilgan baytda oshiq yuragiga sanchilgan ma’shuqa o‘qlarining uni teshib tashqariga chiqishi qanotlari qotib, uchishga yaraydigan, ya’ni temirqanot bo‘lgan qush bolasining uchish maqsadida inidan chiqishiga o‘xshatilayapti. Bu bilan shoir yuragimning dardi shunchalar zo‘rki, unga sanchilgan o‘q-da qushga aylanib, ma’shuqa tomonga parvoz qilishi va uning oldida mening ishqim dostonini kuylashi mumkin, degan bir fikrni ham ifodalagani misralar qatidan sezilib turibdi.

Navoiyg‘azaliyotininglirikqahramonlarihaqidaso‘zketganda, asosan, oshiqvama’shuqaobrazlaritilgaolinadi. Haqiqatanham, shoirningishqiymavzudagig‘azallaridaoshiqvama’shuqaningturliholatlariyorqinbo‘yoqlardatasvirlangan. AdabiyotshunosolimA. Hayitmetov ta’kidlaganidek, "Navoiyishqiyg‘azallariningyarmidanko‘pioshiqningichkikechinmalarini, uninghijronazoblarini, dard-alamlarini, orzu-armonlarinikuylashgabag‘ishlangan**".**

Navoiytasviridaoshiqiztiroblardanqiynalgan, hijrondanazobtortgan, ayriliqlardanzadabo‘lgan**"telbako‘ngil"**egasidir. Shoirshe’riyatidaaqlishqmaskanibo‘lmishko‘ngilgaqarama-qarshiqo‘yiladi. Chunkiinsonniiztirobgasoladigan, boshigaturlibalolarnikeltiradigan, uniturfaqiynoqlargagiriftorqiladiganko‘ngildir. Ko‘ngil aqlyo‘rig‘igayurmaydi.

Ko‘ngulniqaydijunundinchiqardeding, eyaql,

**Ketursa boshingga yuz ming balo ko‘ngul, netayin [42.409]**.

Haq oshiqlari baloni nafaqat azob, musibat, falokat deb balki buyuk bir imtihon deb ham bilganlar. Ularning nazarida balo oshiqning yaxshi hollarga sohib, yaxshi fe’llar egasi bo‘lishi va shu yo‘l bilan maqsad sari intilishini sinovdan o‘tkazish uchun beriladigan azoblardir. Haqqa yaqinlik, undan kelgan azob va jafolarga samimiy munosabatda bo‘lishdir. Shuning uchun ham oshiqlar har qanday qiyinchilik, azob va iztiroblardan cho‘chimaganlar. Hatto bunday qiyinchiliklarni xush qabul qilganlar.Shu o‘rinda Shibliyning quyidagi so‘zlarini keltirish o‘rinlidir: "Ey, Allohim!Xalq seni himmating uchun, men esa balong uchun sevarman". Darhaqiqat, haqiqiy oshiqlar bir on balosiz qolsalar, ilohiy ne’matdan mahrum bo‘lgan kabi oh uradilar, faryod chekadilar:

Jong‘a har dam ishqidin yuz ming balo kam istamon,

O‘zgaga ming yil o‘tub, yuzdin birin ham istamon**[42.345].**

Har damda yuz ming balo kelsa ham lirik qahramon buni kam deb bilmoqda.

Xalqda **"Sadaqa raddi balo" - sadaqa balolarni rad etadi",** degan ibora bor. Ammo shoir lirik qahramoni iztirob va sinovlarni istar ekan, hatto eng aziz narsasi - jonini sadaqa qilib bo‘lsa ham balolarni tilab olish niyatidadir:

Sadaqa chunki balolarni rad aylar, yo rab,

**Jon anga sadqa qilay manga bag‘ishla oni [46.472].**

Muqaddas kitoblarda qayd qilinishicha, Yaratganning sevgan bandalarini g‘am-anduh va balolar bilan imtihon qilishining sababi bor. Buning bir sababi: bu balo va g‘am-anduhlar ba’zi valiy va nabilar uchun qalblarining jilolanishi va iste’dodlarining yuzaga chiqishi uchun yuboriladi. Ularning bunday g‘am-tashvishlarga duch kelishlari erishgan maqomlarini tamomlashlari va buning natijasida yanada yuksalishlarini ta’minlaydi. Shuning uchun hadisda: "Eng shiddatli balolarga duchor bo‘lganlar payg‘ambarlardir, undan so‘ngra valiylardir", deyilgan.

Balolarga sabr aylash, qiyinchiliklarga bo‘ysunishning eng oddiy usuli yuzaga kelgan mashaqqatlarga rizolikdir. Zero, rizo ham haq oshiqlariga xos bo‘lgan hol turi bo‘lib, ba’zilar uni maqom deb ataydilar.

Shoir lirik qahramoniga xos bo‘lgan xususiyatlardan biri sabrdir. Sabr har qanday qiyinchilik va azoblarga bardosh berish, maqsad yo‘lidagi har qanday to‘siqlarni mardonavor yengib o‘tish va natijada murodga erishishdir. Ishqning azoblari, ayriliq iztiroblariga chidam berish ham sabr orqalidir. Shoir lirik qahramoni iztiroblar-u so‘ngsiz ayriliqlardan nolimaydi, balki sabrning o’zidan shikoyat qiladi:

Dam-badam shavqum sanga ko‘prakdur, ammo sabrim oz,

Garchi sen bedodni ko‘p, mehrni oz etkasen [46.362].

Yoki:

Sabr ozidin azob, anduh ko‘pidin ko‘ngluma yuz ming balo,

Ashkdin sayli balo, oh o‘tidin har dam alam [43.362].

Ma’shuqaning mehrsizligi, bedodligi, g‘am-anduhning ko‘pligidan emas, oshiq o‘z sabrining ozligidan shikoyat qilishining sababi bor. "Chunki tasavvufda sabrning tamali nafsga qarshi borish"dir. Sabr nafsning zo‘rliklariga qarshi kurashdir. So‘fiy butun balolarni, jumladan yor vasliga etishish yo‘lidagi qiyinchiliklarni ham Ilohiy bir imtihon deb biladi. Sabr-toqat va matonat bilan yo‘lda ilgarilaganlarning sarmoyasi, mukofotidir. Qur’oni karimda nomlari keltirilgan barcha payg‘ambarlar bir qancha musibatlarga duchor bo‘lganlar, boshlariga kelgan har baloga sabrni qarshi qo‘yib, za-farga erishganlar. Jumladan, Ibrohim (a.s.)ning otashga otilishi, Ayub payg‘ambarning xastalikka uchrashi sabr bilan bog‘liq qissalardir. Ishq yo‘liga kirgan solik ana shu payg‘ambarlar kabi balolarga uchrab, bu balolarga sabrni qarshi qo‘yadi.Zero, sabr muhabbatning kalitidir.

Ulug‘shoirshe’riyatidainsonko‘ngliulug‘lanadi. Shubois, shoirshe’riyatidako‘ngilbilanbog‘liqiboralarko‘puchraydi. Masalan,**buzuqko‘ngil, sinuqko‘ngil, qonko‘ngil, telbako‘ngil**, **devonako‘ngil, ko‘ngil.... kabi** qatoriboralarmavjud**.**
Buiboralarturliholatvatasvirniyaratishuchunqo‘llanganliginikuzatishimizmumkin.
Jumladan. Sinuq, buzuq, shikasta ko‘ngil iboralari orqali yorning an’anviy jafokorligi va oshig‘iga e’tiborsizligini tasvirlash maqsadida qo‘llanganligini ko‘rishimiz mumkin:

**Buzuqko'nglumki,** atrofida ul yuz shavqidin qondur,

Erur vayronaekim, lolalar butkay bahor andin [42.448]

Yoki:

**Shikastako'ngluma** oz g'am bo'lubturur kulliy,

Kesak qanoti sinuq qush ko'ziga tosh ko'runur [42.176].

Bunday holatda oshiq zohiran aftoda, vayron, shikasta ko'rinsa ham, botinan boy va quvvatli bo'ladi. Ikkinchi baytda shikasta ko'ngil holatini hayotiy misol bilan yanada go'zal tasvirlagan. Ya'niki, "qanoti sinuq"  qush uchun yerdagi kesak ham tosh bo'lib ko'rinadi.Shikasta ko'ngil qanoti sinuq qush bilan  qiyoslanyapti.

Alisher Navoiy  ko'ngil holatini jonli, ta'sirchan tasvirlash uchun turli voqea-hodisalarni  misol sifatida qo'llagan baytlari juda ko'p. Masalan,

Chun Navoiy **ko'nglisindi**, emdi lutfing ne osig',

**Kimushutsashishani, butmasyanapayvandila**[43.179].

Bunda shoir  ko'ngilning nozikligiga urg'u beradi. Ko'ngilni og'ritgandan (sindirgandan) so'ng  unga lutf etmoq  foydasizligini "singan shisha tuzalmas", degan ibora  bilan asoslaydi.

Shoir quyidagi baytda chok **ko'ngiliborasini** tajohuli orifona san'ati orqali tasvirlar ekan oshiq ko'ngilni  turli narsalarga qiyos etadi,  lekin fikrini uzil-kesil hukm chiqarmay, savol tarzida  ifodalaydi.Bundan maqsad ko'ngil holatini yanada mukammal va ta'sirchan tasvirlashdir.

**Chok ko'nglum** xo'blar ko'ngli aro topdi shikast,

Vah, butun qolg'aymu yoruq shisha sandonlar aro?[42.42]

Frazeologik iboralar tilning obrazli vositalari sirasiga kiradi.Har qanday ibora zamirida aniq bir hodisa tasavvuri, ma'lum bir narsa obrazi yotadi.Bu obraz iboraga alohida jilo, ravshanlik baxsh etadi.

AlisherNavoiy xalq iboralaridan foydalanishda ularning ma'nosini o'zgartirish usulidangina foydalanib qolmaydi. Ba'zan ibora ma'nosi bilan bir qatorda uning shaklini, tuzilishini ham o'zgartiradi.Bu o'zgartirish iborani ma'no tomondan ham,

shakl tomondan ham matnga muvofiqlashtiradi, muallifning maqsadini aniq ifodalashga yordam beradi.

Badiiy asar tilida frazeologik ibora shaklini o‘zgartirishning yo‘llari xilma-xil. Shulardan biri ibora tarkibidagi so‘zlarni ularning sinonimlari bilan almashtirish bo‘lib hisoblanadi.Masalan quyidagi baytlarda ibora tarkibidagi so‘zlar o‘zgaritib qo‘llangan (chok-yirtiq):

Shikof emas buki ko‘ksumga soldi tiyg‘i halok,
Ki joni xasta g‘amingdin **yaqosin ayladi chok [42.313]**.

Charx zulmidin ne tong suqum sabuhiy vaqtikim
Subh ham bu **g‘ussadin yirtar yaqosin har sahar.[43.130]**.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiy xalq iboralaridan unumli foydalangan. Bu esa shoir lirikasining xalqchilligini ta’minlagan omillardan biridir.

## 2.3.Alisher Navoiyga qalamiga mansubhikmatlar

Alisher Navoiy ilk devoni “Badoe’ ul-bidoya”ga yozgan debochasidayoq adabiyot - tarbiya vositasi ekanligiga urg‘u berib, har qanday badiiy asar ma’rifiy fikrlar va pand-nasihatdan xoli bo‘lmasligi kerakligini qayd etib, jumladan shunday yozgan edi: “Devon topilg‘aykim, anda ma’rifatomiz bir g‘azal topilmag‘ay va g‘azal bo‘lg‘aykim, anda mav’izatangiz bir bayt bo‘lmag‘ay. Mundoqdevon bitilsa, xud asru behuda zahmat va zoye mashaqqat tortilg‘on bo‘lg‘ay”. Shundan keyin o‘zining ishqiy g‘azallari ham ma’rifiy va falsafiy baytlardan xoli emasligini alohida ta’kidlab o‘tadi. Ayni jihatdan shoir merosi – ma’naviy-axloqiy tarbiyaning kuchli qurollaridan biri. Inson tarbiyasi, kamoloti masalalarini o‘zbek adabiyotida hech kim Navoiydek haddi a’losida kuylamagan.

Biz Alisher Navoiyni mutafakkir shoir deb ulug‘laymiz. Mutafakkir so‘zining ma’nosi tafakkur sohibi, keng va chuqur falsafiy mushohada yuritish iste’dodiga ega bo‘lgan kishi degani. Bunday insonlar hikmat ilmini egallagan shaxslar hisoblangan.

Adabiyotshunos olim N.Hasanovning manbalardanhikmatning ta'rifiga doir ma'lumotlarni aniqlaydi: «Lug'atlardaizohlanishicha, hikmat - «fikrlashmalakasiningo'rtaholdabo'lishi; tadbiqilaamalgaoshuvchitajribabilanerishilganto'g'ribilim; Haqqamuvofiqso'z; hammanarsaningengmukammali; hikmatOllohninglashkaribo'lib, uorqaliOllohavliyolarningqalblarigaquvvatbag'ishlaydi; tasavvufiyshe'rlargahamhikmatdeyiladi. Hikmat–bilimdonlik, donishmandlik, falsafa, maxfiysir, aqluhaqiqatgato'g'rikeladigannozikma'noliqisqaso'z, masal; ashyoningahvolidan; zohiriyvabotiniykayfiyatidanbahsetuvchiilm, axloqvahaqiqatgadoirfoydali, muxtasarso'z; Allohgaitoat; so'zvaharakatdagiuyg'unlik» [34. 42].

Ko'rinib turibdiki, Alisher Navoiy hikmat ilmini eganllagan va hikmat aytish qobiliyatiga ega bo'lgan ijodkor. Adib, birinchidan. Chuqur bilim, keng dunyoqarash, katta hayotiy tajribaga ega bo'lishi, ikkinchidan, hayot, inson umrining ma'no-mazmuni, ezgulik va yovuzlik, muhabbat va nafrat, halol va harom, fano va baqo, nafosat va qabohat, do'stlik va dushmanlik, diyonat va va xiyonat kabi azaliy va abadiy tushunchalarning mohiyatini teran anglab yetishi va falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qila olishi, uchinchidan fikr-mulohazalarini turli badiiy tasvir vositalari yordamida aniq, lo'nda va ta'sirchan ifodalash mahoratini egallashi kerak. Bu esa yuz ijodkordan bittasiga nasib etadigan buyuk maqom. Alisher Navoiy esa o'sha yuztadan bittasi edi. Buni esa shoir ijodida hikmat shaklida aytilgan lo'nda va purma'no fikrlar tasdiqlab turibdi. Bunday xalq hikmatlari singari omma orasida o'zlashib ketgan. Hatto yangimaqollarningpaydobo'lishiallomalar, donoadiblaraytganhikmatliso'zlarbilanbog'liqbo'ladi. AlisherNavoiyijodibilantanisharekanmiz, aforizmdebatalmishmuallifianiqdonovahikmatliso'zlargaduchkelamiz. **"Oz-ozo'rganibdonobo'lur, qatra-qatrayig'ilibdaryobo'lur"**kabimisollarshularjumlasidandir. "Shoirning hikmatlari na zamonu zamin, na mahzabu din va ijtimoiy tuzumu siyosiy turkum jihatidan cheklangan" [23.3].

Alisher Navoiyning hikmat darajasiga ko‘tarilgan baytlari ham xuddi xalq hikmatlariga o‘xshab mavzu jihatdan rang – barang. Ularda ota-onani e’zozlash, odamiylikni ulug‘lash, tilga, so‘zga e’tiborli bo‘lish, ilm o‘rganish kabi qator mavzularda ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Xalq hayotini eng chuqur qatlamigacha, ikir-chikirlarigacha yaxshi bilgan, xalq og‘zaki ijodidan to‘la xabardor shoir o‘z asarlarida xalq maqol-matallari, obrazli iboralaridan keng foydalanadi, kundalik turmushdan olingan hayotiy tashbehlarni ko‘p qo‘llaydi. O‘z navbatida, zamonasining barcha ilmlarini egallagan, hayotning butun achchiq-chuchugini tortgan donishmand shoirning ko‘rgan-kechirganlarining xulosasi sifatida teran mazmunli lo‘nda hikmatlari xalq orasida shunchalik singib ketganki, ularning qaysi biri xalqniki, qaysi biri Navoiyniki ekanligini ajratib bo‘lmaydi. Fikrimizni quyidagi misollariningo‘ziyoq tasdiqlaydi:

Bilmaganni so‘rab o‘rgangan olim va orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim.

**Tilgaixtiyorsiz, elgae’tiborsiz.**

**Ayturso‘zniayt, aytmasso‘zdanqayt.**

**Sihhattilasang, ko‘pyema, izzattilasangko‘pdema.**

**Erkishigazebuziynathikmatvadonishdur.**

Navoiyning barchadan talab etgan va hammada bo‘lishini orzu qilgan ezguliklarning mazmun-mundarijasi shunchalik ko‘pki, ularni birma-bir sanab chiqishning imkoni yo‘q. Aslida shoirning inson tarbiyasi bilan bog‘liq o‘git nasihatlari, fikr mulohazalari, talab – ko‘rsatmalari, orzu-istaklariini bir yerga jamlab, ularni tartib bilan joylashtirib chiqilsa, insoniy kamolotga erishish yo‘lari ko‘rsatilgan o‘ziga xos nazmiy dastur, qo‘llanma vujudga keladi.

Alisher Navoiy ko‘p qirrali teran fikrlarni lo‘nda va aniq shaklda ifodalaydi, o‘z fikrlarining ta’sirchanligini oshirish uchun hayotiy tashbehlar topadi. Fikr, narsa va holatni yo o‘xshashiga nisbat berish, yo ziddiga qiyoslash orqali ibratli xulosa chiqaradi. Chunonchi:

Senagartarkita’maqilsang, ulug‘ishdurbukim,

Olamahlibarchabo‘lg‘aybirtaraf, senbirtaraf [46.509].

Bu yerda shoir o‘z fikrlarini qrama-qarshi qo‘yish- tazod san’ati orqali ifodalamoqda: hozir butun dunyo ta’ma quliga aylangan, agar sen ta’mani tark etsang, olamdagi barcha odamlar bir tarafu sening  yolg‘iz o‘zing bir taraf bo‘lsangki,  u nihoyatda ulug‘ ishdur.

Quyidagi hikmat esa tashbeh-o‘xshatish asosida qurilgan: Bir siniq ko‘ngilni ko‘tarish Ka’bani obod qilishga tenglashtiriladi:

**Kimkibirko‘nglibuzuqningxotirinshodaylagay,**

**Onchaborkim, Ka’bavayronbo‘lsa, obodaylagay.**

Bu tasavvufdagi ko‘ngilni ulug‘lash an’analariga borib taqaladi. Ko‘ngilning hamma narsa, hatto Ka’badan g‘am ustun qo‘yilishining sababi shundaki, tasavvufda Allohdan keyin ko‘ngil turadi.To‘g‘ri, Ka’ba Allohning uyi, lekin u zohiriy, ramziy uy, uning haqiqiy uyi – insonning ko‘ngli.

Mumtozshe’riyatimizdako‘pqo‘llanilganvainsontaqdiri, holatlaribilanbog‘liqxilma-xilma’novatuyg‘ularniaksettirishgaxizmatettirilganshe’riytimsollardanyanabiri**shamoltimsoli**hisoblanadi.

Qadimgidavrlardanboshlabinsonumrinishamolgao‘xshatishbirfikrvama’noan’anasigaaylanganedidesaxatobo‘lmaydi. Masalan, AlisherNavoiyyuzlabg‘azallarida “yel”, “sabo”, “nasim”, “obdisabo” kabilargamurojaatqiliboshiqko‘nglidagifikr-kechinmalarnita’sirliohanglardashiddatbilantezo‘tibketishiniaksettiradi. Masalan, shoirbirg‘azalidashundaydeydi:

**Umr yeldeko‘tmakindebsanmagar, eybog‘bon,**

**Kim, yaqosichoksizgulbo‘lmadibubog‘aro[42.42].**

Eybog‘bon, senumrgayeldeko‘tmagindeyao‘tinibsan, biroqbubog‘aroyaqosichoksizgulbutganmi? Yuqoridagifalsafiyruhdagimisralaro‘quvchinimushohadagachorlaydi. Bizgama’lumki, tabiatdabirorgul, Navoiyta’biribilanaytganda, choksizbo‘lmaydi. Butabiatmo‘jizasinishoirinsonumrigaqiyosetdi, ya’niinsonumrishodliklarbilanbirgaqayg‘ulardan(choklardan) hamiborat. Baytdashoir

“bog‘aro” “yaqosichoksizgul” bo‘lmaganidek, insonumriningyeldeko‘tishidanafsuslanishihambefoydaekanliginita’kidlaydi.

Baytdagig‘oyaxalqimizning**“O‘tganumr-kuyganko‘mir”** hikmatidagi g‘oyagahamohang. Navoiyhikmatidaham, maqoldaham “Kishiningo‘tganumriniasloorqasigaqaytaribbo‘lmaydi, bamisolikuyibkulbo‘lganko‘mirniasliholigaqaytaribbo‘lmaganidek, yoxudotilgano‘qni, oqibo‘tgan suvni orqasiga qaytarib bo‘lmaganidek. Bas shunday ekan, umrning har bir kuni, har bir lahzasidan imkoni boricha unumli foydalanib qolish, uni aslo zoye o‘tkazmaslik zarur”, degan ma’noda nasihat qilingan.

Navoiy quyidagi misralarda ham umrni shamolga o‘xshatadi: har qancha yugurib, shamolga yetib bo‘lmagani singari, shiddatli umr oqimini ham to‘xtatib turish mumkin emas. Shunday ekan, qo‘lingdan kelguncha uni shod-xurram o‘tkaz, toki so‘ngi lahzalarda bu oam ayvonini afsus nadomat bilan tark etma:

Ey Navoiy, umr o‘tar yeldek, o‘zingni shod tut,

Yelga yetmakmumkinermasturchusur’atko‘rguzib [43.54].

Navoiy olam va odam mohiyati haqida ko‘p bosh qotirgan, tiriklik va o‘lim sabablari ustida muttasil mulohaza yuritgan, inson hayotining maqsadi, ma’no-mazmuni xususida bir umr o‘ylagan, tabiat va jamiyat sirlarini o‘zicha yechishga intilgan. Uning chuqur bilim, keng dunyoqarash, katta hayotiy tajriba, olimona teran tafakkur va shoirona o‘tkir nigoh bilan uyg‘unlashgan fikr –mulohazalari, falsafiy xulosalari hikmat kabi jaranglashi shundan. Chunonki, shoir olamning yaratilishi to‘g‘risida ko‘p yillik mushohadalarining natijasi sifatida dunyoda bir qil ham behuda yaratilmagan, basharti, men unda biror xato ko‘rsam, bu olamning nomukammaligidan emas, balki mening nuqtayi nazarimning xato ekanligidandir, degan teran va haqqoniy bir fikrni bayon etadi:

Bukorgohdaxatokelmadichubirsarimo‘y,

Xatomeningnazarimdadur, xatoko‘rsam [46.309].

**“Til-dilkaliti”, “Dildanimabo‘lsa, tilgashukeladi”, “Tildanchiqqani-dildanchiqqani”** kabi xalq hikmatlarida “Dilingda boshqa narsani o‘ylab, tilingda boshqa narsani gapirma, ayyorlik, mug‘ombirlik, tilyog‘lamachilik qilma, to‘g‘ri o‘yla,

to‘g‘ri so‘yla, rostgo‘y bo‘l”, deya nasihat qilinadi. Hazrat Navoiyning quyidagi baytda ham shu hikmatlardagi g‘oya va mazmun targ‘ib qilingan:

Yor uldurkim, tiliyu ko‘ngli aning bo‘lsa bir,

**Kimtilio‘zgayuko‘nglio‘zgaulyoremas [43.215].**

Alisher Navoiy hikmatidagi g‘oya ancha kengayganini ko‘rishimiz mumkin. Xalq hikmatidagi “til va dilni bir tutish” g‘oyasiga qo‘shimcha tarzda “tili va dili bir bo‘lmagan insonning do‘st bo‘lmasligi” g‘oyasini shoirning o‘z qarashlari tarzida qabul qilish mumkin.

Kishi aybing desa, dam urmag‘ilkim, ul erur ko‘zgu,

**Chuko‘zgutiyrabo‘ldi, o‘zgaaybingzohiraylarmu? [42.679]**

Xalqimizda**“Ko‘zgugadamursang, o‘zingniko‘rolmaysan”** degan hikmat-maqol mavjud. Odatda ko‘zguga “huh” deb dam urilsa, ko‘zgu xiralashadi, hech nima ko‘rinmaydagan bo‘lib qoladi. Bu maqolning to‘g‘ri ma’nosi. Majozan, “Yor do‘stlaring, yaqinlaring sening aybingni ko‘rsatuvchi oynadir. Aybingni ko‘rsatuvchi kishiga dam urma (qattiq tegma). Oyna dam urish bilan xiralashga, boshqa aybingni ko‘rsatolmaydigan bo‘lib qoladi.

Alisher Navoiyning ustoz va shogird munosabatlari xususida fikr yuritar ekan, “Haq yo‘lida kimki mashaqqat chekib, senga birgina harf o‘rgatgan bo‘lsa, yuz xazina boylik bilan ham uning haqini ado etolmaysan” deydi:

Haq yo‘linda kim senga bir harf o‘qutmish ranj ila,

Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Bu − ustoz va shogirdning o‘zaro munosabati to‘g‘risidagi shoirning falsafiy xulosasi. Darhaqiqat, ustozning maqomi buyuk - uni hech narsa bilan tenglashtirib bo‘lmaganidek, ustoz oldidagi shogirdlik qarzini ham ikki dunyoda uzib bo‘lmaydi. Ustoz otangdan ulug‘, - degan maqol bejiz aytilmagan.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning o‘tkir haqiqat asosiga qurilgan har bir o‘giti bitta hikmat. Bu hikmatlar zamirida inson axloqini tuzatishga, uni ruhan tozalashga qaratilgan ulug‘ muddaolar yotadi. Uning zarbulmasalgan aylanib ketgan ta’birlari, baytlari, misralari inson, xalq, bashariyat haqidagi g‘amxo‘rligi, uning

adolat, insof va to‘g‘rilik yo‘lida olib borgan tolmas kurashi bu hassos yurakda naqadar zo‘r muhabbat qaynaganiga, bu yorqin manglay miyada naqadar oliy fikrlar va g‘oyalar javlon urganiga shohiddir.

## XULOSA

Xalqningnutqidafaolishlatiladigan, asrlaro‘tsada, insoniyatxotirasidanko‘chmaykelayotganmaqol, matal, iboralartabiiyki, xalqningorzu-istaklari, o‘y-xayollariniaksettirgan.

Darhaqiqat, maqollarborki, “shirin” – pand-nasihatqiladi, aqlo‘rgatadi, mardvabotirbo‘lishgada’vatetadi; “achchiq” – aybingiznidangalyuzingizgaaytadi, poraxo‘r, muttaham, yolg‘onchi, o‘g‘ri, lo‘ttivoz, ikkiyuzlamachi, xushomadgo‘y, laganbardor, qallobodamlarningta’ziriniberadi; achchiq, alamqildiradiganso‘zlarbilanpichingqiladi, arazvakinoyaaralashboplabadabberadi.

Xalqmaqollariinsonnutqiningko‘rkibo‘lib, ulardagiixchamhajmvama’noxalqma’naviyati, zakovatimahsulidir. Maqollarnutqiymazmunniboyitishga, fikrta’sirchanligigaerishishda, shuningdek, tilningko‘rkamligininamoyonetishdamuhimuslubiyvositasifatidanutqningxalqtiligayaqinbo‘lishinita’minlaydi. Nasrganisbatanshe’riyatdamaqollardanfoydalanish,unishe’rritmivaqolipigatushirishda mazmunigaputuryetkazmaganholdaqaytaishlashijodkordanmuayyanmahorat, bilimvakattatajribanitalabetadi.

Adabiyotinsonnibadiiyifodalar, voqea-hodisalarningbadiiytasviribilantarbiyalaydi, ezgulikkachorlaydi, hayotniteranroqanglashgaundaydi.Fikrimizni asosli ekanligini mumtoz adabiyotimiz vakillari, xususan, ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy ijodi misolida yoritishga harakat qildik. Mavzu bo‘yicha umumiy xulosalarimiz quyidagicha:

- AlisherNavoiyijodiningmuhimmanbalaridanbirixalqog‘zakiijodidir. Shoirnasriyvanazmiyasarlaridabumanbadanmahoratbilanfoydalangan.
- Mumtozshe’riyatdamaqolqo‘llashavvalgimisradagifikrnita’kidlashvatasdiqlashuchunxizmatqiladi.

Maqollarasosang‘azalbaytidaifodalanganfikrniasoslashyokichog‘ishtirishuchunqo‘llanib, misralarningsoddavaravono‘qilishida, qolaversa, nutqiyta’sirchanlikkaerishishdamuhimuslubiyvositasanaladi.

- G‘azaldamaqolkeltirishuchunqo‘llangan “masaldurur”, “masalkim”, “chunmasalbo‘ldi” singarijumlalarta’kidvaqiyosnikuchaytirishgaxizmatqiladivamaqollarasosanbaytningikkinchimisrasidakeltiriladi. Bundaybaytmisralario‘zaro*sabab-natija, qiyosvao‘xshatish*munosabatlariniifodalaydi.

- Navoiyg‘azaliyotidamaqollardanfoydalanishningquyidagiko‘rinishlarimavjud:

**A**. Xalqmaqoliaynankeltiriladi: **“Masaldurkimuyquo‘limdir”**

**B.** Maqoldagiayrimso‘zlaro‘zgaradi, ma’nosaqlanadi. Masalan,

**Qilmamishjoninfidojong‘aetmasderemish,**

**EyNavoiyushbuso‘zbirlafidoyuzjonanga,** **baytda** “Jondan kechmasang -jonona qayda, toqqa chiqmasang - do‘lona qayda” maqoling mazmuni singdirilgan.

**V.** Shoirbirorfikrnimaqoldagima’nodanfoydalanibifolaydi. Bir qarashda bu fikr mustaqildek ko‘rinadi. Fikr yuritsak, adibning xalq maqollaridagi ma’noni o‘ziga xos boshqa so‘zlar bilan ifolaganini anglaymiz. Masalan, Alisher Navoiy g‘azallaridan birida “**O‘lturur mahramni sulton, ganji pinhon aylagach”**, - degan misra bor. Unda xo‘jayin, sulton, hokim xazinasini yashirishni mahramiga, ya’ni eng yaqin xizmatlarini bajaruvchi xizmatkoriga buyurishi, xazina biror yerga ko‘milganidan so‘ng ortiqcha guvohdan qutulish uchun uni o‘ldirishi aytilgan. Ehtimol, shoir zamonasida aynan shundaq maqol bo‘lgandir. Ammo biz bu maqolning borligidan bexabarmiz. Lekin undagi ma’no bugungi kunda mavjud va biz avvalroq esga olgan **“O‘tin ayirgan bolta maydonda qolar” yoki “Ishim bitdi, eshagim loydan o‘tdi”** kabi maqollar mazmunini ifodalaydi.

- AlisherNavoiyg‘azaliyotixalqiboralaridanfoydalanishdaularningma’nosinio‘zgartirishusulidanginafoydalanibqolmaydi. Ba’zan ibora ma’nosi bilan bir qatorda uning shaklini, tuzilishini ham o‘zgartiradi. Bu o‘zgartirish iborani ma’no tomondan

ham, shakl tomondan ham matnga muvofiqlashtiradi, shoirmaqsadini aniq ifodalashga yordam beradi.

- Lirikmatn tilida ibora shaklini o‘zgartirishning yo‘llari xilma-xil. Shulardan biri ibora tarkibidagi so‘zlarni ularning sinonimlari bilan almashtiribqo‘llanganligihamshoirmahoratidandarakberadi. Masalan,**“yirtiqyaqo”** iborasini“**chokeruryaqosi**” shaklidashaklidaqo‘llaydi.

- AlisherNavoiyninghikmatdarajasigako‘tarilganbaytlarihamxuddixalqhikmatlarigao‘xshabmavzujihatdanrang – barang. Ulardaota-onanie’zozlash, odamiylikniulug‘lash, tilga, so‘zgae’tiborlibo‘lish, ilmo‘rganishkabiqatormavzulardaekanliginiko‘rishimizmumkin.

## FOYDALANILGANADABIYOTLARRO‘YXATI:

### I. Itimoiy-siyosiy adabiyotlar va rasmiy hujjatlar:

1. KarimovI. A. Yuksakma’naviya – yengilmaskuch. Yuksakma’naviyat – engilmaskuch.–T.: “Ma’naviyat” , 2011.

2. Karimov I.A. Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. –T.: “O‘zbekiston” , 2009.

3. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: O‘zbekiston nashriyoti. 2017.

4. Barkamol avlod orzusi (“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni amalga oshirish borasidagi mulohazalar). –T.: “Sharq” nashriyot-matbaa konserni, 1998.

5. “Ta’lim to‘g‘risida” O‘zbekistonRespublikasiningqonuni. Oliyta’limme’yoriyhujjatlarto‘plami. –T.: “Sharq” nashriyot – matbaaaksiadorlikkompaniyaboshtahririyati, 2001.

### II.Monografiya, risola, o‘quv qo‘llanma va ilmiy maqolalar:

6. Alisher Navoiy. G‘azallar. Sharhlar. –T.: “Kamalak”, 1991.

7. Alisher Navoiyning adabiy mahorati masalalari. –T.: “Fan”, 1993.

8. Boboyev T. She’r ilmi ta’limi. –T.: “O‘qituvchi”, 1996.

9. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2002.

10. Boltaboyev H. Sharq mumtoz poetikasi. –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. 2008.
11. Vamberi G. Ocherki Sredney Azii. Moskvay. 1968.
12. Vohidov R. Alisher Navoiyning ijod maktabi. Buxoro. 1994.
13. Jumaxo‘ja N. Satrlar silsilasidagi sehr. –T.: O‘qituvchi, 1996.
14. Izzat S. Adabiyotshunoslik nazariyasi. –T.: O‘qituvchi”, 1980.
15. Yo‘ldoshevB. Hozirgio‘zbekadabiytilidafrazeologikbirliklarningfunksional-uslubiyxususiyatlari. Fil.fan.dokt . ... diss.avtoref. - T ., 1993.
16. Is’hoqovYo. Navoiypoetikasi. –T.: “Fan”, 1983.
17. MallayevN. O‘zbekadabiyotitarixi. –T.: O‘qituvchi, 1965.
18. MallayevN. Navoiyijodiyotiningxalqchilnegizi. –T.: O‘qituvchi, 1980.
19. MallayevN. So‘zsan’atininggultoji. –T.: G‘afurG‘ulomnomidagiAdabiyotvasan’atnashriyoti, 1991.
20. Navoiyvaadabiyta’sirmasalalari. –T.: Fan, 1968.
21. Navoiyvaijodsaboqlari. – Toshkent: Fan, 1981.
22. RustamovA. Navoiyningbadiiymahorati. –T.: Adabiyotvasan’atnashriyoti, 1979.
23. RustamovA., RahmatullayevaM. AlisherNavoiy. Hikmatliso‘zlar. –T.: 1985.
24. SalaxutdinovaD. “Badoe’ul – bidoya” devonivabadiiysan’atkorlikmasalalari. Fil. fan. nom. Diss... – Samarqand, 1993.
25. SoatovB. Maqolningjanrtabiatigadoir// O‘zbektilivaadabiyoti.- 1998. - №6. 63-b,
26. SoatovB. O‘zbekxalqmaqollaripoetikasigadoirmulohazalar// O‘zbektilivadabiyoti. 1992, №5-6. 41-b.
27. ShomaqsudovSh., ShorahmedovSh. Ma’nolarmaxzani. –T.: 2001.
28. ShomaqsudovSh., ShorahmedovSh.Hikmatnoma. O‘zbekxalqmaqollariningizohlilug‘ati. –T.: 1990.
29. ShukurovaZ. “QissasiRabg‘uziy”damaqollar / O‘zbektilivaadabiyoti. 2012, №2. 97-b.
30. O‘zbekxalqmaqollari. – T .: Adabiyotvasan’at , 1989.
31. O‘zbekxalqmaqollari. Ikkijildlik. 1-jild. T.: O‘zbekistonSSR “Fan” nashriyoti. 1987.
32. QurbonovaS. HamidOlimjonshe’rlaridaxalqmaqollaridanfoydalanish // O‘zbekfilologiyasiningdolzarbmuammolari. Farg‘ona. 2010.

33. HayitmetovA. Navoiyxonliksuhbatlari. –T.: O‘qituvchi, 1993.
34. Hasanov N. Yassaviyshunoslikka bir nazar // O’zebek tili va adabiyoti. 2001. № 4сон. – Б. 42- 45.
35.Haqqul Ibrohim. Tasavvuf va she’riyat. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991.
36.Haqqul Ibrohim. Kamol et kasbkim. –T.: “Cho‘lpon”, 1991.
37.HojiahmedovA. Mumtozshe’riyatdabadiiysan’atlar. –T.:“Sharq”, 1998.
38.HojiahmedovA. She’riysan’atlarvamumtozqofiya. –T.: “Sharq”, 1998.
39.Husainova F. Oydin Hojiyevaning maqol va iboralardan foydalanish mahorati // O‘zbek tili va adbiyoti. 2009, 2-son.

## III. Badiiyadabiyotlar:

40.Bobur. Asarlar. III jildlik. I jild. Devon. Badiiy adabiyot nashriyoti. –T.: 1965.
41.Lutfiy. Devon.–T.:Fan. 1980.
42.Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik, I jild. Badoyi’ ul-bidoya. –T.: “Fan”, 1987.
43.Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik, II jild. Navodir un-nihoya. –T.: “Fan”, 1987.
44.Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik, III jild. Xazoyin ul-maoniy. G‘aroyib-us-sig‘ar. –T.: Fan. 1988.
45.Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik, IVjild. Navodir ush-shabob. –T.: Fan, 1989.
46. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. V jild. Badoe’ ul-vasat. –T.: Fan, 1990.
47. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. 6-tom. Favoyid ul-kibar. –T.:Fan, 1990.
48. YusufXosHojib. Qutadg‘ubilig. –T.: “Yulduzcha “ nashriyoti. 1990.
49.Qur’onikarim (AlouddinMansurtarjimasi). –T.: “Cho‘lpon”. 1993.

## IV.**Lug‘atlar**

50.AlisherNavoiyasarlaritiliningizohlilug‘ati. 4 – jild. –T.: Fan, 1985.
51.Berdiyorov H., Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. -T.: “O‘qituvchi”, 1984.
52.Berdaq Yusuf. Mumtoz adabiy asarlar lug‘ati. –T.: 2010
53. Navoiyasarlarilug‘ati. –T.: G‘. G‘ulomnomidagiAdabiyotvasan’atnashriyoti, 1972.
54.MahmudKoshg‘ariy. Devonulug‘otitturk. –T.: Fan. 1960.
55.RahmatullayevSh. O‘zbektiliningizohlifrazeologiklug‘ati. –T.: “O‘qituvchi” nashriyoti. 1978.
56.QuronovD., MamajonovZ., SheraliyevaM. Adabiyotshunosliklug‘ati. –T.: Akademnashr, 2010.
57. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha–o‘zbekcha izohli lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1983.